

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR USTIDA ISHLASH

BSB bo'yicha o'quvchiga qo'yiladigan talablar:

- mustaqil so'z turkumlarini aniqlay oladi;
- yordamchi so'z turkumlarini bir-biridan farqlay oladi;
- undov, modal, taqlid so'zlarni ajrata oladi;
- olmosh va ravishlarning ma'no turlarini aniqlay oladi.

1. Parchadan mustaqil so'z turkumlarini aniqlab, turiga ko'ra ajrating. (5 ball)

Yarim kecha bo'lib qolgan, atrof jimjit. Faqat olislarda it uliydi. Ayvon to'sinidagi uzun mixga ilig'lik uch-to'rtta lampochka xira nur taratadi. Chiroq atrofida o'ralashgan chivinlar bir zum tinmaydi. Hovlining yarmigacha tortib ekilgan qulupnay pushtalari orasida suv yaltiraydi. Onda-sonda rang olgan qulupnaylar ko'zga tashlanib qoladi.

Qayoqdandir shamol keldi. Hovli etagidagi yong'oq shoxlari bir guvullab qo'ydi. Shoikrom uyqu elita boshlagan ko'zlari bilan o'sha tomonga qaradi.

<i>Ot</i>	<i>Sifat</i>	<i>Son</i>	<i>Olmosh</i>	<i>Ravish</i>	<i>Fe'l</i>

2. Parchadan yordamchi so'z turkumlarini aniqlab, turiga ko'ra ajrating. (5 ball)

Bugun men nihoyatda baxtliman. Chunki sakkiz yoshli o'g'lim bo'ynimdan qattiq quchib, mehr bilan:

– Siz dunyodagi eng yaxshi onasiz, – dedi. Men uchun bu so'zlar qimmatbaho olmos kabi juda qadrli edi.

Sakkiz yoshli bolamning ishonch bilan aytgan gaplari menga ta'sir qilib, kulib qo'ydim va:

– Axir qayerdan bilasan dunyodagi eng yaxshi onaligimni? Nahotki, sen dunyodagi hamma onalarni tanisang? – deya so'radim-u quvonch bilan ko'zlariga tikildim.

Uning javobi meni hayratga soldi hamda men uni qattiq bag'rimga bosishdan o'zimni tiyolmay qoldim.

– Men faqat o'z dunyomni taniyman. Mening dunyom sizsiz, onajon! – dedi u.

<i>Ko'makchi</i>	<i>Bog'lovchi</i>	<i>Yuklama</i>

3. Parchadan undov, taqlid, modal so'zlarni aniqlang. (5 ball)

So'nggi guvoh sud zaliga kirganida hamma joyidan qo'zg'aldi, go'ng'ir-go'ng'ir ovozlari eshitila boshlandi:

– Uf, sud tugay deb qolgandi! – deb hamma bir-biriga norozi qarardi.

– Tartib saqlansin! – dedi sudya qo'lidagi bolg'achasini bir necha bor stolga taq-taq urib.

Guvoh ship-ship qadam tashlab, o'z joyini egalladi. Ayblanuvchi kursisida o'tirgan Tommi esa haykalday qotdi. Eh, u o'zining oqlanishiga ishonchi yuz foiz komil edi. Tommining katta ochilgan ko'zi-yu og'zini ko'rganlarning bariga, afsuski, uning ayblari oyday ravshan bo'ldi. Guvoh ayblanuvchiga qarab, g'olibona iljaydi.

– Ey Tom, meni tanimayapsan, chamasi? Vijdoning ekanligimdan tonmassan! Albatta, adashmading, gunoh ishlar qilayotganingda doim yoningda bo‘lgan o‘sha vijdoning bo‘laman!

<i>Undov so‘zlar</i>	<i>Taqlid so‘zlar</i>	<i>Modal so‘zlar</i>

4. Gaplarni olmoshning ma’no turlari bilan moslashtiring (diqqat, ortiqcha javob(lar) mavjud). (5 ball)

1. Yurtimizning qayeriga qaramang, hashamatli binolar qad rostlamoqda.	A) kishilik olmoshi
2. O‘zi haqida o‘ylamay, faqat elga bilim berish haqida o‘ylagan olim kishi xuddi shamga o‘xshaydi.	B) ko‘rsatish olmoshi
3. Eshik qattiq taqilladi, shu payt ostonada Umar zakunchi paydo bo‘ldi.	C) so‘roq olmoshi
4. Men xalq oldida sizning iltimosingizga javob bermoqqa majbur bo‘ldim.	D) belgilash olmoshi
5. Pochchamdan dasturxonni olib qoqish uchun gilosning yonidan o‘tarmanmi, allanima baloga turtinib ketdim.	E) bo‘lishsizlik olmoshi
6. Moziylar sasiga quloq tutgum jim, ustun bo‘lgan emas dunyoga hech kim.	F) gumon olmoshi
7. Tog‘asining shu odati sabab o‘g‘li Haydar ham, qizi Tohira ham bu xonadondan bezib ketishdi.	G) o‘zlik olmoshi
8. Har bir bekning navkarlari yuklarni tuya qo‘shilgan og‘ir aravalarga ortib kelmoqda edilar.	

5. Gaplarni ravishning ma’no turlari bilan moslashtiring. (5 ball)

1. Sherqo‘ziga ko‘zi oldidan nari ketishi uchun ruxsat bermay qo‘ydi.	A) holat ravishi
2. Bo‘ying sal cho‘zilsin, birorta duradgor usta topilsa, shogirdlikka topshirardim.	B) payt ravishi
3. G‘uvullab uchayotgan bo‘ron ichida yigitlar xashag-u bedalarni arava tagiga olib kirib, g‘ildiraklarga namat yopishdi.	C) o‘rin ravishi
4. Bo‘taboy ataylab baland ovozda gapirdi, ovozi xumning ichidan chiqqandek guldurab ketdi.	D) miqdor-daraja ravishi
5. Mahkam oftobdan ko‘zini qisib, unga qaradi-da, javob o‘rniga qo‘lini yoydi va noiloj kulimsiradi.	E) sabab ravishi
6. U bexosdan kelib, yigitni belidan oldi-da, chirpirak qilib uloqtirib yubordi.	F) maqsad ravishi
7. Ho‘kiz kechqurun qorni ochib, charchab kelsa, uning oldiga bir bog‘ quruq poyani tashlab qo‘yar ekan.	

Baholash mezonlari (25 ball)	
Mustaqil soʻz turkumlarini aniqlay olishi	5 ball
Matndan mustaqil soʻzlarni turiga koʻra toʻliq va toʻgʻri ajratgan boʻlsa –	5 bal
Matndan mustaqil soʻzlar turini ajratishda biroz xatolikka yoʻl qoʻygan boʻlsa –	4 – 3 ball
Matndagi mustaqil soʻzlarni aniqlashda bir talay xatoliklarga yoʻl qoʻygan boʻlsa –	2 – 1 ball
Yordamchi soʻz turkumlarini aniqlay olishi	5 ball
Yordamchi soʻz turkumiga mansub birliklarni turiga koʻra toʻliq va toʻgʻri ajratgan boʻlsa –	5 bal
Yordamchi soʻzlar turini ajratishda biroz xatolikka yoʻl qoʻygan boʻlsa –	4 – 3 ball
Yordamchi soʻzlarni ajratishda chalkashliklarga yoʻl qoʻygan boʻlsa –	2 – 1 ball
Undov, taqlid, modal soʻzlarni aniqlay olishi	5 ball
Matndagi undov, taqlid, modal soʻzlarni turiga koʻra toʻliq va toʻgʻri ajratgan boʻlsa –	5 bal
Matndagi undov, taqlid, modal soʻzlar turini ajratishda biroz xatolikka yoʻl qoʻygan boʻlsa –	4 – 3 ball
Matndagi undov, taqlid, modal soʻzlarni ajratishda chalkashliklarga yoʻl qoʻygan boʻlsa –	2 – 1 ball
Olmoshlarning maʼno turlarini farqlay olishi	5 ball
Gaplarni olmoshning maʼno turlari bilan toʻliq moslashtirgan boʻlsa –	5 bal
Gaplarni olmoshning maʼno turlari bilan qisman moslashtirgan boʻlsa –	4 – 3 ball
Gaplarni olmoshning maʼno turlari bilan moslashtirishda chalkashliklarga yoʻl qoʻygan boʻlsa –	2 – 1 ball
Ravishlarning maʼno turlarini farqlay olishi	5 ball
Gaplarni ravishning maʼno turlari bilan toʻliq moslashtirgan boʻlsa –	5 bal
Gaplarni ravishning maʼno turlari bilan qisman moslashtirgan boʻlsa –	4 – 3 ball
Gaplarni ravishning maʼno turlari bilan moslashtirishda chalkashliklarga yoʻl qoʻygan boʻlsa –	2 – 1 ball
Jami:	25 ball